



"OILA VA GENDER" ILMY-TADQIQOT INSTITUTI

# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnalı

*Society, Gender and Family in  
Central Asia*  
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в  
Центральной Азии*  
международный научный рецензируемый журнал

**2024/2 (11)**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**DOI: 26739/2118-9998**

**TAHRIR HAY'ATI RAISI:**

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

**TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

**SAIDOVA Galina Karimovna** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich** – psixologiya fanlari doktori, professor.

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**BEKMURADOV Adham Sharipovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**MA'RUFובה Gulnora Mahmudovna** – Oly Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanova** – pedagogika fanlari doktori, professor.

**RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**SAIDOV Akmal Xolmatovich** – yuridik fanlari doktori, professor.

**YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna** – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

**TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna** – tibbiyot fanlari nomzodi.

**UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**ZIYAYEV Azamat Xamidovich** – tarix fanlari doktori, professor.

**ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li** – psixologiya fanlari doktori.

**TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*)

**ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Нарбаева Танзила Камаловна** – доктор социологических наук, профессор.

**Сайдова Галина Каримовна** – доктор экономических наук, профессор.

**Шоумаров Гайрат Бахрамович** – доктор психологических наук, профессор.

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

**Бекмуратов Адхам Шарипович** – доктор экономических наук, профессор.

**Маъруфова Гулнора Махмудовна** – сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

**Мусурманова Айниса Мусурманова** – доктор педагогических наук, профессор.

**Рахимова Нигина Хайруллаевна** – доктор экономических наук, профессор.

**Сайдов Акmal Xolmatovich** – доктор юридических наук, профессор.

**Якубжанова Dilobar Batirovna** – доктор педагогических наук, доцент.

**Ташмухамедова Diloram Ghafurjanovna** – кандидат медицинских наук.

**Умирзаков Bakhodir Khamidovich** – доктор экономических наук, профессор.

**Зияев Azamat Khamidovich** – доктор исторических наук, профессор.

**Абдусаматов Xasanboy Usmonjon ugli** – доктор психологических наук.

**Turakulov Ulugbek Holbutayevich** – доктор философии педагогических наук (*PhD*)

**THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

**MEMBERS OF THE EDITING BOARD:**

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – Doctor of Sociological sciences, Professor.

**Saidova Galina Karimovna** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich** – Doctor of Psychological sciences, Professor.

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Bekmuradov Adkham Sharipovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Marufova Gulnora Makhmudovna** – Senator, Member of the Senate Committee of the Oly Majlis on Women and Gender Equality.

**Musurmanova Aynisa Musurmanova** – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

**Rakhimova Nigina Khayrullayevna** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Saidov Akmal Kholmatovich** – Doctor of Juridical sciences, Professor.

**Yakubjanova Dilobar Batirovna** – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

**Tashmukhamedova Diloram Ghafurjanovna** – Candidate of Medical sciences.

**Umirzakov Bakhodir Khamidovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Ziyayev Azamat Khamidovich** – Doctor of Historical sciences, Professor.

**Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli** – Doctor of Psychological Sciences.

**Torakulov Ulugbek Holbutayevich** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (*PhD*)

**XALQARO TAHIR HAY'ATI:**

**Doktor Rashmini Koparkar,**

*Rossiya va Markaziy Osiyon*

*o'rganish markazi dotsenti*

*Xalqaro tadqiqotlar maktabi,*

*Javoharlal Neru universiteti,*

*Nyu-Dehli, Hindiston*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna,**

*Chelyabinsk davlat madaniyat*

*instituti,*

*pedagogika fanlari doktori, professor*

**Doktor Priti Kesavan,**

*Texnologiya fakulteti boshlig'i,*

*London biznes va moliya maktabi,*

*Singapur*

**МЕЖДУНАРОДНАЯ****РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

**Доктор Рашмини Копаркар,**

*Доцент Центра исследований*

*России и Центральной Азии,*

*Школа международных*

*исследований,*

*Университет Джавахарлала Неру,*

*Нью-Дели, Индия*

**Артамонова Екатерина**

**Иосифовна,**

*Челябинский государственный*

*институт культуры,*

*доктор педагогических наук,*

*профессор*

**Доктор Прити Кесаван,**

*Руководитель Технологического*

*факультета*

*Лондонская школа бизнеса и*

*финансов, Сингапур*

**INTERNATIONAL EDITORIAL****BOARD:**

**Dr. Rashmini Koparkar**

*Assistant Professor*

*Centre for Russian and Central Asian*

*Studies*

*School of International Studies*

*Jawaharlal Nehru University*

*New Delhi, India*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna**

*Chelyabinsk State Institute of Culture*

*Doctor of Pedagogical Sciences,*

*Professor*

**Dr. Preethi Kesavan**

*Head, School of Technology*

*London School of Business and*

*Finance, Singapore*

*SOTSILOGIYA*

<b>Saydivalieva X.X., Kadirova T.J.</b> Mehnat munosabatlarida kamsitish holatlarining oldini olish va gender tengligini ta'minlashning ijtimoiy huquqiy jihatlari .....	4
<b>Myсаева М.И.</b> Гендерные различия в диагностике расстройства аутистического спектра.....	12
<b>Inoyatova S.J.</b> Oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid xorij tajribasining o'ziga xos xususiyatlari .....	17
<b>Ilxamova Z.</b> O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xotin-qizlarning ishtiroti .....	24
<b>Zokirov S., Xusanova S.</b> O'zbekistonda ta'lif davomiyligi: hududlar va jinslar bo'yicha farqlar, ularning sabablari.....	29

*OILA VA JAMIYAT*

<b>Hojiyev R.B.</b> Oilaviy nizolarni bartaraf qilishda oilaviy mediatsiyaning roli (Turkiya tajribasi misolida).....	35
<b>Abduramanov X.X., Saxibov O.K., Rustamov J.I.</b> Oilaviy ajrimlarning farzand tarbiyasiga ijtimoiy-psixologik ta'siri .....	40
<b>Abdibositov A.</b> Huquqiy ong tushunchasining tarkibiy tahliliga oid ayrim fikr va mulohazalar .....	46
<b>Muhittdinova D.</b> Huquqiy madaniyat yetishmasligi sababli kelib chiqadigan muammolar va ularni bartaraf etish .....	51

*PSIXOLOGIYA*

<b>Yangiboyeva D.R.</b> Ko'p bolali oilalar submadaniyatida shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari .....	56
<b>Xusanov S.</b> "Mehnat motivatsiyasi" tushunchasining ilmiy-nazariy o'r ganilishi .....	63
<b>Аскарова Г., Каримова Н.</b> Социально-психологические особенности копинг-поведения среди молодежи .....	68
<b>Nomozova R.O.</b> Ilm-fan sohasida gender tenglikni rivojlantirishning psixologik aspektlari .....	75
<b>Imonova M.B.</b> O'smir shaxsi shakllanishida sibling maqomining psixologik ta'siri.....	80
<b>G'ulomqodirov E.A.</b> Psixologik nazariyalarda oilaviy zo'ravonlik tushunchasining talqini .....	85

*PEDAGOGIKA*

<b>Qurbanova B.N.</b> Mustaqil ta'lif jarayonida talabalarning ijodkorligini shakllantirish .....	91
---	----

*DEMOGRAFIYA*

<b>Dusnayev Sh.E.</b> O'zbekiston aholisi soni va tarkibidagi dinamik o'zgarishlarning iqtisodiy-statistik tahlili .....	96
--	----

*ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR*

<b>Rabiiev B.B.</b> Ayollar uy xizmati migratsiyasini tartibga solish bo'yicha Filippin tajribasi.....	102
--	-----



**Imonova Maftuna Baxtiyor qizi,**  
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
[imonovamaftuna949@gmail.com](mailto:imonovamaftuna949@gmail.com)

## O'SMIR SHAXSI SHAKLLANISHIDA SIBLING MAQOMINING PSIXOLOGIK TA'SIRI

**Annotatsiya.** Mazkur maqola oiladagi sibling maqomi va sibling munosabatlarining shaxs shakllanishiga ta'siri, farzandlarning sibling maqomi va uning xarakter xususiyatidagi o'rni yoritib berilgan. Oilada farzandlarning maqomi ularning kelajakdagi ijtimoiy hayotdagi o'rniga ta'siri va shu ta'sir natijasida jamiyatda o'rın topishi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Bir oiladagi tug'ishganlarning bir-birlaridan farq qilishlari, ularning qiziqishlari, qobiliyatlar, motivatsiyalari, faoliyati, muloqoti hamda xarakteriga sibling maqomi hayoti davomida katta ta'sir o'tkazib keladi. O'zbek oilalaridagi serfarzandlik farzandlar muloqotchanligini oshirish, faoliyatda jadal harakat qilish, o'z qobiliyat va layoqatlarini ochiq-oydin namoyon etishda psixik taraqqiyotining juda yaxshi rivojlanishiga yordam beradi.

**Tayanch so'zlar:** sibling maqomi, shaxsiy ko'rsatkich, psixik taraqqiyot, perfektionizm, adaptatsiya, raqobat, infantilizm, muloqot.

**Аннотация.** В данной статье освещается влияние сиблинового статуса и сиблиновых отношений на формирование личности детей, а также роль сиблинового статуса на детский характер. Статус детей в семье влияет на их место в будущей общественной жизни и дается информация об их месте в обществе в результате этого влияния. Статус брата и сестры оказывает большое влияние на различия братьев и сестер, рожденных в одной семье, их интересы, способности, мотивацию, деятельность, общение и характеры на протяжении всей жизни. Большое количество детей в узбекских семьях помогает детям совершенствовать свою коммуникабельность, быть активными в своей деятельности, ярко проявлять свои способности и таланты, хорошо развивать свое умственное развитие.

**Ключевые слова:** сиблиновый статус, индекс личности, психическое развитие, перфекционизм, адаптация, конкуренция, инфантлизм, общение.

**Annotation.** This article about family sheds light on the effect of sibling status and sibling relationships on children's personal characteristics, and the role of sibling status on their characteristics. Information was given about the effect of the status of children in the family on their place in social life and the impact of this influence on the society. Sibling status has a great impact on the life of siblings born in the same family. The large number of children in Uzbek families helps children to manage their sociability, to actively move in activities, to clearly show their physical and abilities, and to develop mental development very well.

**Keywords:** sibling status, personality index, mental development, perfectionism, adaptation, competition, infantilism, communication.

**Kirish.** Sibling – bu bir oilada bir ota-onadan tug'ilgan aka-uka va opa-singillarni tasvirlash uchun ishlatalidigan atama. Bola shaxsining shakllanishida va rivojlanishida uning oilasidagi opa-singillar, aka-ukalarning bir-biriga ta'siri borligini avstriyalik psixolog A. Adler ilmiy asoslab bergen. Oilada sibling maqomi – aka-

uka va opa-singil musobatlari shakllanishi va paydo bo'lishini quyidagicha tahlil etish mumkin. Qadim zamonlardan beri tug'ishganlar merosni taqsimlash tartibi bilan bog'liq holda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Katta aka, qoida tariqasida, merosning katta ulushini olib kelgan. Kenja o'g'il farzandlar esa doimo ota-onalari bilan qolib ularga g'amxo'rlik

qilib birga yashashgan. Ota-onalarining vafotlaridan so‘ng ota-onal yashagan uy kenja o‘g‘ilga meros bo‘lib qolgan. Oilaning to‘ng‘ich farzandlarda doimo mas’uliyat hissi erta uyg‘onadi<sup>1</sup>. Chunki bunga sabab o‘zidan keyin dunyoga kelgan uka yoki singilga nisbatan o‘zini kattaroq his qiladi va ota-onalari tomonidan “sen akasan”, “sen kattasan”, “sen himoya qilishing kerak” zaminidagi gaplar orqali tarbiya berib boriladi. Shu sababli ham aka va opalar ota-onalardan so‘ng doim uyning kattasi vazifasini bajarishga harakat qilishadi, uyo-ro‘zg‘or ishlari, moddiy ta’milot, kichiklarning o‘qish va armiya majburiyatlarini o‘z zimmalariga olishadi. Oilada farzand tug‘ilarkan unga bo‘lgan munosabat, parvarish, tarbiya va e’tibor berish, doimo u bilan birga bo‘lish muhim sanaladi. Psixologlarning fikricha, to‘ng‘ich bolaga nisbatan, keyingi farzandlarning qobiliyatları, iqtidori va salohiyati, xarakteri va xususiyati o‘zgacha bo‘lishi ta’kidlanadi. Ba’zi kitoblarda sog‘lom farzand ko‘rish uchun normal yosh deb yetuklik davri (28–35 yoshlar oralig‘i) ko‘rsatilgan. Negaki, bu davrda ota ham, ona ham har jihatdan yetilgan, barkamollikka erishayotgan bo‘ladi. Er-xotin ham oilaga moslashgan va bir-biriga butkul ko‘nikkan bo‘ladi. Ayni davrda tug‘ilgan bolalar esa tez ko‘nikuvchan va zehnli bo‘lishi bilan ajralib turadi<sup>2</sup>.

**Maqsad va uni asoslash.** Ushbu maqloda siblinglarning har birlarini alohida o‘rganib, tahlil qilib chiqamiz.

### **Yolg‘iz farzandlar.**

Ular nisbatan katta psixologik yukni ko‘taradilar. Agar bir nechta aka-uka yoki opa-singillari bo‘lganida, uni bir nechtafiga taqsimlash mumkin edi va bu yerda hamma uchun u barcha yukni o‘z zimmasiga olish.

Yolg‘iz farzanlarning muloqotchanligi ko‘pincha cheklangan. Masalan, ularda kimgadir g‘amxo‘rlik qilish ko‘nikmasi bo‘lmaydi, bu ularning kichik aka-ukalari yo‘qligi uchundir, balki. Bunday bolalar o‘zidan ko‘ra kuchliroq bo‘lgan

<sup>1</sup> Имонова М. (2023). Роль отношения сиблинга в пробуждении мотивов обучения детей. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101–104. // <https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/22447>

<sup>2</sup> Sharofitdinov A. (2022). Oilada sibling maqomi munosabatlarining psixologik xususiyatlari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(3) // <https://pshedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/5603>

sherikka bo‘ysunishni istashmaydi, chunki undan katta akasi yo‘q bo‘lganligi uchun. Ular xudbinroq bo‘ladilar, chunki ular ota-onalarining bor mehrmuhabbati va barcha g‘amxo‘rligiga odatlangan.

Yakka farzandlar orasida raqobatbardoshlik kamroq, chunki ular hech qanday kuch sarflamasdan hamma narsaga ota-onalari yordamida erishib kelishadi. Shuning uchun ular uchun inqirozlar va unga qaratilgan tanqidlarni qabul qilishlari va yengib o‘tishlari qiyinroq kichadi, tengdoshlari bilan muloqot qilish odatiga ega bo‘lmaydi, chunki aka-uka va opa-singillar yo‘qligi sababli ular ko‘pincha keksa odamlar bilan muloqot qilishni yoqtirishadi.

Yakka farzandlar doimo ota-onasining e’tiborida “mikroskop ostidagi chivin” kabi. Shunga ko‘ra, farzand ota-onasining umidlarini qondirishi kerakligi singdirib boriladi. Voyaga yetganida, bu o‘zini perfektionizm, hamma narsada mutlaq mukammallikka intilish sifatida namoyon qilishi mumkin. O‘zining mukammal ekanini inobatga olib, atrofdagilar va umuman dunyoning o‘zi ham shunga yarasha munosabatda bo‘lishi kerak, deb o‘yaydi, ya’ni unga yetib bo‘lmaydi. Ammo xudbinlik va boshqa har qanday buzg‘unchi fikrlar, his-tuyg‘ular ta’siri ostida inson tanazzuluga uchrashi mumkin.

U boshqa odamlar bilan munosabatlarda o‘z chegaralarini qanday himoya qilishni biladi. “Bu mening kitobim, bu mening mashinam”. U uniki yoki boshqa birovnikni ekanini juda yaxshi tushunadi.

### **To‘ng‘ichlar (katta farzand).**

Bir muncha vaqt (kichik bolalar tug‘ilishidan oldin) ular barcha ota-onalarning e’tiborini tortadilar. Ular ko‘pincha intellektual va jismoniyligi jihatdan yanada rivojlangan bo‘lib o‘sadi. Ko‘pincha juda erta yoshdan boshlab ular boshqalarga g‘amxo‘rlik qilish va yordam berish qobiliyatini rivojlantiradilar (kenja aka-uka va opa-singillar). To‘g‘ri, bu juda ko‘p bo‘lib, ular va keyingi yosh o‘rtasidagi yosh farqiga bog‘liq. Yosh bolalarga yordam berish odati tufayli ota-onalar katta mas’uliyat yuklaydi. Mas’uliyatning haddan tashqari yuki esa, o‘z navbatida, ehtiyojkorlik va konservativizm kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Boshqa tomondan, to‘ng‘ichlar ko‘pincha kichiklarga nisbatan avtoritar usullardan foydalanadilar va buyruq berish odatiga ega. U juda erta yoshdanoq o‘zini aqlli va kuchliroq his qilish uchun sharoitga yaratib berilgan bo‘ladi.

### **Kenjatoylar (oxirgi bolalar).**

1. Erkin, beparvo, beg‘am. Ular ko‘pincha o‘ynoqilik, infantilizm va hayotga bolalarcha

munosabatni sochlari oqarib ketguncha saqlab qoladilar.

2. Ota-onalari tomonidan ular har doim eng yaxshi shirinliklarni kichiklar sifatida olishgan. Ular voyaga yetganida ko‘pincha sherigidan g‘amxo‘rlik va vasiylikni talab qilishni davom ettiradilar: “Siz qancha bersangiz ham, bu yetarli emas!”.

3. Ularning shaxsiy yutuq motivi kamroq namoyon bo‘ladi. Dunyoga sehrli munosabat: “Hamma narsa menga laganda keltiriladi (ota-onsa ham, koinot kuchlari ham)”.

4. Katta aka-uka va opa-singillar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘qnashuvda g‘alaba qozonish imkoniyati yo‘qligi sababli ular ko‘pincha hissiy manipulyatsiya va murakkab diplomatiyaga moyil.

### O‘rtancha farzandlar.

1. Darhol ko‘zingizga tushadigan birinchi narsa – o‘rtancha farzandlarning o‘ziga xos maqomiga ega emasligi. Masalan, serfarzand oiladagi 5 nafar farzandning uchta o‘rta farzandi bor.

2. O‘rta pozitsiya eng noqulay hisoblanadi. U kattaning ustuvor maqomidan ham, kichikning imtiyozlaridan ham mahrum.

3. O‘rtancha farzandlar, qoida tariqasida, ota-onsa oilasini tezroq va osonroq tark etadilar. Siz kattasini qo‘yib yuborolmaysiz, chunki u “uy xizmatchisi”, kichigi esa suyukli.

4. To‘ng‘ich farzand o‘z vazifalarini o‘rtanchasiga yuklaydi. Kichigiga topshiriq berolmaydi, chunki u hali kichkina. Shu bilan birga, o‘rtancha farzand akasiga hurmat bilan qaraydi, ko‘p narsani unga taqlid qilish orqali o‘rganadi. To‘ng‘ichning eng kuchli fazilatlarini o‘ziga olishga harakat qiladi. Va bunday “hayotiy ta‘lim” ota-onalarga taqlid qilishdan ko‘ra samaraliroq bo‘lishi mumkin, chunki katta akasi bilan aloqa masofasi ancha yaqinroq. Bosim ostida bunday bolalar o‘zlarining mudofaa qobiliyatlarini, birinchi navbatda, o‘z fikrlarini himoya qilish mahoratini rivojlantiradilar.

5. O‘sish va rivojlanishga to‘g‘ri keladigan og‘irroq sharoitlar natijasida o‘rtancha farzandlar ancha chidamli, sabrli, turli xil turmush sharoitlariga moslashadi, kamroq tashvishlanadi, maqsadlarga yaxshiroq diqqatni jamlaydi va shunga mos ravishda erishadi. Hayotda bunday insonlar ko‘p uchraydi.

6. O‘rtancha farzandlar yangi va g‘ayrioddiy narsalarni qabul qila olishga tayyor. Chunki ular baxtni oiladan emas, balki tashqaridan,

jamiyatdan izlaydilar. Agar akasi, qoida tariqasida, ota-onasining ishini meros qilib olgan bo‘lsa, o‘rtanchasi “Amerika”ni kashf etadi. Kenjatoylar esa to‘ng‘ichlarning yutuqlaridan bermalol foydalanadi.

7. Yana bir qiziq fakt – g‘ayrioddiy g‘oyalarni ham odatda o‘rtanchalar qo‘llab-quvvatlaydi. Xususan, XIX asrda Charlz Darwin ta’limotini qo‘llab-quvvatlagan olimlarning 90% dan ortig‘i ham o‘rtancha farzandlar bo‘lgan.

### Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Siblinglar raqobati hodisasi G.T.Xomentauskas tomonidan fanga kiritilgan va o‘rganilgan. Bunda bolalarning o‘zaro munosabatlari, qachon bir-biriga raqib bo‘lishlari va qachon birlashishlari o‘rganilgan. Masalan, oilaviy inqirozlar payti – ota-onsa qazo qilganda yoki xastalanib qolganda, ular albatta bir-biriga muruvvat qiladi, jipslashadi. Aksariyat hollarda, aynijsa, rivojlangan mamlakatlarda ko‘pincha bitta ota-onaning farzandlari o‘rtasida o‘ziga xos tarang munosabatlar kuzatilgan. Bu narsa o‘sha jamiyatlardagi shaxsiy avtonomiya fenomeni bilan bog‘liq bo‘lib, har bir inson ilk yoshlikdan faqat o‘z manfaati uchun yashaydi va kurashadi. Bunday sharoitda sibling munosabatlarining faqat ijobji bo‘lishiga erishish ancha mushkul.

To‘ng‘ich bola uchun hayotdagi eng og‘riqli erta jarohat (travma) – bu yagona bo‘lish maqomini yo‘qotish, tashlab ketilish. Zero, farzand “men eng zo‘r edim, yagona edim, ota-onam uchun koinot markazi edim” kabi o‘ylardan so‘nggina birdan gullab-yashnaydi”.

**Inqiroz tajribasi.** Ota-onsa bilan munosabatlarda o‘ziga xoslik va uni yo‘qotish tajribasi, norozilik (ota-onsa xoin sifatida qabul qilinishi) va tashvish (butun dunyo tuzatib bo‘lmaydigan adolatsiz va xavfli joy sifatida qabul qilinishi). Shuning uchun, ukasining tug‘ilishidan so‘ng, to‘ng‘ich farzand maqtov va qo‘llab-quvvatlovga muhtoj. Ular o‘zlarini tashlandiqday his qilmasliklari uchun ona kattasiga ko‘proq e’tibor qaratadi.

Kichik farzand o‘rniga birinchi mustaqil qarorlarni qabul qilishingiz kerak bo‘lgan vaziyat juda og‘riqli bo‘lishi mumkin. Axir, u butun hayotini to‘liq xavfsizlik va maksimal qulaylik sharoitida o‘tkazdi. U o‘zini nochor his qilmasligi uchun bolaligidanoq huquq va majburiyatları o‘rgatib borilishi, erkin tanlov va o‘z fikriga ega bo‘lish hamda qaror qabul qilish, o‘ziga xos mas’uliyat sohasiga ega bo‘lish qobiliyatini rivojlantirib borish

lozim. Bunda mas'uliyatli ishlarni uning o'ziga ishonib topshirish kerak. Shaxsning sibling maqomi muammosini o'rgangan A.Adler 1920-yillardayoq o'z izlanishlaridan kelib chiqqan holda yolg'iz farzand shaxslararo munosabatlarda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, degan xulosaga keldi. R.B.Felson siblinglar o'zaro munosabatlaridagi aggressivlikni o'rganib, oiladagi yolg'iz jinsli bolaga nisbatan (jinsidan qat'iy nazar) boshqa bolalarning jismoniy va verbal aggressiv harakatlar qilishini aniqladi. Felsonning fikricha, shaxsning aggressiv xulq-atvoriga uning oilasidagi shaxslararo munosabatlar qatorida sibling maqomi va siblinglar soni ham muhim rol o'ynaydi<sup>3</sup>.

Oilaning kattalashishi bilan uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar o'zgaradi. Rol tuzilmasi asta-sekin kengayib boradi, bu "farzand-farzand" tipidagi turli yoshdagi munosabatlar tufayli yuzaga keladi. Ota-onalar bilan muloqotning pasayishi katta oiladagi aka-uka va opa-singillar bilan o'zaro munosabatlarning kuchayishi bilan qoplanadi. Bolaning rivojlanishida bolalar muloqoti alohida rol o'ynaydi, bu farzandlarning aqliy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Biroq, afsuski, oiladagi bolalar o'rtasidagi muloqot ota-onalar bilan yanada boyitilgan (og'zaki va intellektual) muloqotning yetishmasligini to'liq qoplay olmaydi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ota-onalar o'zlarining to'ng'ichlarining individual xususiyatlarini ko'proq payqaydi, jumladan,

oiladagi to'ng'ich farzand ko'proq g'amxo'rlik, e'tibor va muhabbatga ega bo'ladi;

birinchi farzandning intellektual xususiyatlariga ta'sir qiluvchi ota-onsa xususiyatlarining kengroq tizimi mavjud;

qolgan farzandlar muhitida u ota-onsa rolida "kvazi-ota"ga aylanadi va bu munosabatlarning yangi turiga ta'sir qiladi;

birinchi farzandning intellektual xususiyatlariga qarab keyingi bolalarning intellektual xususiyatlari shakllanadi;

kech tug'ilgan bolalarda ota-onsa va bola munosabatlarini farqlash imkoniyati cheklangan va rivojlanish uchun zarur bo'lgan individual muloqot yetarli bo'lmaydi;

<sup>3</sup> Sharofiddinov, A. (2022). Oilada sibling maqomi munosabatlarining psixologik xususiyatlari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2 (3) // <https://pshedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/5603>

farzandlarning aka-uka pozitsiyasi ota-onalar bilan munosabatlarning o'ziga xos xususiyatini belgilaydi, deb ishoniladi.

Birinchi marta oilada tug'ilish tartibining harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlariga ta'sirini aks ettiruvchi statistik ma'lumotlar banki N.I.Konyuxov tomonidan 1979-yilda to'plangan. Ushbu tadqiqotda asosiy xulosalar ekspert baholashlar yordamida amalga oshirilgan, chunki ko'rsatilgan muddat davomida test usullari qo'llanilmagan. Shunga qaramay, matematik usullar keng qo'llangan va oiladagi yagona bolalarning psixologik xususiyatlari mutaxassislar tomonidan intervallli shkala bo'yicha baholangan, ularning ayrim shaxsiy fazilatlarini taqsimlash jadvallari shaklida taqdim etilgan. Bu serfarzand oila bolalarining bir-biri bilan hissiy yaqinroq aloqasi bilan alohida ajralib turadi. Shuning uchun ko'p bolali oilada har bir bolaning shaxsiy manfaatlari va maqsadlariga erishish aka-uka va opa-singillar manfaatlariga tajovuz qilish orqali yashiriladi. Oiladagi bolalar bu ko'nikmaga yillar davomida ega bo'lishadi, shuning uchun ko'pincha ularning barcha odamlarga xos bo'lgan "ego"si tabiiy ravishda kamroq yashirin bo'ladi. Zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan eng muhim farqlar – serfarzand oilalar farzandlari va oiladagi yagona bolalar o'rtasidagi og'zaki rivojlanish (og'zaki intellekt, og'zaki xotira) sohasidagi farqlardir. Ushbu natija xorijiy psixologlarning ma'lumotlariga mos keladi va ko'p bolali oila kattaligi aloqa sifatining pasayishi bilan bog'liq degan, taxminni tasdiqlaydi. Kognitiv ko'rsatkichlar bo'yicha ko'p bolali oiladagi birinchi va ikkinchi tug'ilgan bolalarni taqqoslash R.Zajonc (1979) tomonidan taklif qilingan termoyadroviy modelga ko'ra, birinchi tug'ilganlarning faqat yengil ustunligi aniqlangan. Ushbu muallifning fikriga ko'ra, tug'ilish tartibi omilining kognitiv rivojlanishga salbiy ta'siri shunchalik katta emaski, hatto birinchi ikki nafar farzand o'rtasida ham aqlidrokdag'i sezilarli farqlarni aniqlash mumkin<sup>4</sup>.

**Yakuniy qism.** Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, hayotimizdagi barcha narsalar, qiziqishlarimiz, ishtiyoqlarimiz bolalikdan boshlanadi. Bir qarashda shaxsiy va kasbiy hayotda

<sup>4</sup> Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi. Ko'p bolali oilalar submadaniyatida ota-onsa va bola munosabatlari // orienss. 2024-yil. 2-son // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ko-p-bolali-oilalar-submadaniyatida-ota-onsa-va-bola-munosabatlari> (kirish sanasi: 16/05/2024).

ko‘plab “tushunib bo‘lmaydigan” psixologik muammolarning sabablari, odatlarining ildizlari, e’tiqodi, dunyoqarashi va hayotiy pozitsiyasining asosi uning sibling maqomida yotadi. Ota-onaning o‘rtancha farzandga qiladigan yordami –unga aka-uka va opa-singillarning afzalliliklarini his qilish imkoniyatini berish, uni kichik boladek erkalash

va unga katta boladek ishonishdir. Biroq oila va undagi munosabatlarning shaxs taraqqiyotiga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham talaygina. Zero, shaxsning shakllanishi va kelajagini belgilashda uning oilasidagi muhit, undagi shaxslararo munosabatlar, ya’ni bolaning ota-onasi, siblinglar bilan aloqlari muhimdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Имонова М. (2023). Роль отношения сиблинга в пробуждении мотивов обучения детей. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101–104. // <https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/22447>
2. Sharofitdinov A. (2022). Oilada sibling maqomi munosabatlarining psixologik xususiyatlari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2 (3). // <https://pshedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/5603>
3. Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi. Ko‘p bolali oilalar submadaniyatida ota-onva bola munosabatlari // oriess. 2024-yil 2-son. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ko-p-bolali-oilalar-submadaniyatida-ota-onva-bola-munosabatlari> (kirish sanasi: 16/05/2024).
4. Imonova M.B. (2023). Oilat tinchligi – jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, pp. 1148-1151.
5. Имонова М., Тожиева Д. (2023). Роль сиблинговых отношений в когнитивном развитии детей. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1 (1), 447-453.
6. Иманова М.Б. (2021). Шахс характери акцентуацияси ва деструктив хулк-атвор. Academic research in educational sciences, 2 (11), 1399-1403.
7. Имонова, М.Б. (2023). Важность сестровых отношений в личном развитии. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 2 (22), 120-123.
8. Imonova M.B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.

**“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»  
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE**

## **MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA**

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии  
Society, Gender and Family in Central Asia*

**x a l q a r o i l m i y j u r n a l i**

*международный научный журнал  
international academic journal*

**2024/2 (10)**

**DOI: 26739/2118-9998**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO ‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**MUASSIS:**  
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**  
**Razzakova N., Sobirova E.,**  
**Jabborov U.**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**  
Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanylгanda mualliflik huquqini e’tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.  
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8  
Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.  
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.